# KOLLABORATIV TA’LIMDA MUAMMOLI TA’LIM METODLARI

**Shamuratova Marjangul Joldasbaevna**
Nukus davlat texnika universiteti
«Tabiiy va aniq fanlar» kafedrasi
kata o’qituvchisi.
Ilmiy rahbar, pedagogika fanlari doktori,
professor **Abilova Gulbaxar Jalgasbaevna**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kollaborativ ta’lim muhitida muammoli ta’lim metodlarini qo‘llashning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Maqolada talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, jamoada ishlash hamda qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muammoli ta’limning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, kollaborativ ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, interaktiv metodlardan foydalanish va raqamli ta’lim texnologiyalari integratsiyasi orqali ta’lim samaradorligini oshirish mexanizmlari asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Muammoli ta’lim, kollaborativ ta’lim, o’qitish usullari, oamoaviy o‘rganish, hamkorlik va muloqot ko’nikmalari.

**Abstract:** This article highlights the theoretical and methodological foundations of applying problem-based learning methods in a collaborative learning environment. The article analyzes the pedagogical possibilities of problem-based learning in the development of students' competencies in independent thinking, analysis of problem situations, teamwork, and decision-making. Mechanisms for increasing the effectiveness of education through the creation of problem situations in the process of collaborative learning, the use of interactive methods, and the integration of digital educational technologies are also substantiated.

**Keywords:** Problem-based learning, collaborative learning, teaching methods, collective learning, collaboration and communication skills.

**Аннотация:** В данной статье освещены теоретико-методические основы применения методов проблемного обучения в среде коллаборативного обучения. В статье анализируются педагогические возможности проблемного обучения в развитии у студентов компетенций самостоятельного мышления, анализа проблемных ситуаций, работы в команде и принятия решений. Также обоснованы механизмы повышения эффективности образования за счет создания проблемных ситуаций в процессе коллаборативного обучения, использования интерактивных методов и интеграции цифровых образовательных технологий.

**Ключевые слова:** Проблемное обучение, коллаборативное обучение, методы обучения, коллективное обучение, навыки сотрудничества и общения.

**Kirish qism:** Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, ayniqsa oliy ta’limda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to’g’risidagi Farmonida zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasi belgilab berilgan. Mazkur hujjatda ta’lim jarayoniga ilg’or pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va interfaol metodlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta’kidlangan [1]. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida talabalarni faollikka undaydigan, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradigan samarali o’qitish metodlarini qo’llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunday metodlar

orasida kollaborativ ta’lim va muammoli o’qitish usullarining uyg’unlashuvi samarali pedagogik texnologiya sifatida namoyon bo’ladi. Kollaborativ ta’lim talabalarning guruhda hamkorlikda ishlashini, bilim almashishini, bir-birini qo’llab-quvvatlab, umumiy maqsad sari intilishini ta’minlasa, muammoli o’qitish esa ularni real muammolarni anglash, tahlil qilish va mustaqil yechimlarni topishga undaydi.

Mazkur yondashuvlarning integratsiyasi o’quv jarayonini faqat bilim berishga emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga, ijtimoiy-hamkorlik ko’nikmalarini rivojlantirishga, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, jadal rivojlanayotgan jamiyatda talabalarlarning jamoada ishlash madaniyati, mas’uliyatni bo’lishish, turli nuqtai nazarlarni hurmat qilish va muammoni birgalikda hal qilish ko‘nikmalari ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois, kollaborativ ta’limda muammoli o’qitish usullarini qo’llash nafaqat talabalar bilimini chuqurlashtiradi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi.

**ASOSIY QISM**

Muammoli ta’lim va hamkorlikda o’rganish talabalarning faolligini kuchaytiradigan faol ta’lim yondashuvi hisoblanadi. Talabalar kichik guruhlarda birgalikda muammoni tushunish, nimani o’rganish kerakligini aniqlash, ma’lumotlarni o’rganish, natijalarni tahlil qilish, yechimlarni taklif qilish va o’z xulosalarini taqdim etish uchun ishlaydi. Kollaborativ ta’lim, umuman olganda, talabalarlarning topshiriqlarni bajarish yoki umumiy o’quv maqsadlariga erishish uchun kichik guruhlarda birgalikda ishlashlariga urg’u beradi. Guruh a’zolari bir-biriga bog’liq bo’lib, fikr almashadi, bir-birlariga yordam beradi va guruhning muvaffaqiyati uchun mas’uliyatni baham ko’radi. Bu ikki yondashuv ko’pincha birgalikda qo’llaniladi, chunki murakkab muammolarni samarali hal qilish uchun odatda jamoaviy ish talab etiladi. Bu Ta’lim 4.0 ning asosiy pedagogik tamoyillariga mos keladi va zamonaviy ko’nikmalarni rivojlantirishga bevosita hissa qo’shadi [2].

Ushbu pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslarini tahlil qilish, amaliy imkoniyatlarini yoritish hamda o'quv jarayonida samarali qo'llash yo'llarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kollaborativ ta'limda muammoli o'qitishning usullari.** Kollaborativ ta'lim va muammoli o'qitish bir-biri bilan yaxshi uyg'unlashadi: muammoli o'qitishda talabalar birgalikda murakkab muammolar ustida ishlaydi, bu esa hamkorlik, o'zaro tajriba va muloqotni rag'batlantiradi. Quyida bir qancha muammoli o'qitish usullari va ularni kollaborativ ta'limda joriy qilish yo'llari keltirilgan:

*Problem-Based Learning (PBL).* Talabalar guruhlarga bo'linib, muammoga munosabatini muhokama qiladi, savollar qo'yadi, gipotezalar ishlab chiqadi va ma'lumot izlashadi. Har bir guruhda rollarni taqsimlash mumkin: har bir a'zo topshiriqni bajarishga javobgar vakil, izlanuvchi, fasilitator bo'lishi mumkin. O'qituvchi guruh bilan munozarani qo'llab-quvvatlaydi, ularga yo'naltiruvchi savollar beradi, zarurida izlanish resurslarini taklif qiladi.

*Case-Study (holat tahlili).* "Case-study" — bu real yoki gipotetik ssenariylar asosida talaba guruhlari tomonidan tahlil qilinadigan usul. Har bir guruhga ma'lum "case" taqdim qilinadi: talabalar bu ssenariyni o'rganib, asosiy muammolarini aniqlaydi, tahlil qiladi va yechimlar taklif qiladi. Keyin guruhlar o'z xulosalarini taqdim qiladi va boshqa guruhlar bilan taqqoslaydi, mulohaza olib boradi.

*Challenge-Based Learning (CBL).* Qiyinchiliklarga asoslangan ta'lim. Bu yondashuvda talabalar jamiyat, fan yoki boshqa sohalar bilan bog'liq muammolar katta, haqiqiy, aktual qiyinchiliklar ustida ishlaydi. Guruhda ular katta ideyalarni aniqlaydi, savollar tuzadi, ma'lumot yig'adi va amaliy yechimlar ishlab chiqadi. Bu metod kollaborativlikni kuchaytirib, o'rganishni faqat nazariy emas, balki amaliy sohada ham olib boradi.

*Peer-Led Team Learning (PLTL). Jamoaviy o'rganish.* Bu usulda talabalar o'zaro guruhlarda ishlaydi, va u yerda "peer-leader" — ya'ni guruh raislari, muvaffaqiyatli talabalardan tayinlanadi ular guruhni boshqaradi va muhokamalarni

olib boradi. Peer-leader guruh a’zolariga savollar qo’yib, ularni muammoli topshiriqlarni hal qilishga rag’batlantiradi, muloqotni qo’llab-quvvatlaydi. Bu talabalar o’rtasida hamkorlikni uyg’otadi, va bilimlarni mukammal egallashga yordam beradi.

*Flipped Classroom.* Muammoli o’qitishni “Flipped classroom” bilan birlashtirish mumkin: talabalar darsgacha onlaynda leksiyalarni, videomateriallarni ko’rib chiqadi yoki muammoli savollar bilan tanishadi, darsdan tashqari vaqtda esa guruhlarda muammolarni muhokama qilish va topshiriqlarni hal qilish bilan shug’ullanadi. Dars vaqtida o’qituvchi fasilitator sifatida ishtirok etib, talabalarni yo’naltirib, savollar berish va javoblarni muhokama qilish uchun sharoit yaratadi.

**Muammoli o’qitish usullarining afzalliklari.** Kollaborativ ta’limda muammoli o’qitish usullarini qo’llash bir qator ijobiy tomonlarga ega:

-Tanqidiy fikrlash va ijodiy yechimlar. Muammoli topshiriqlar talabalarni savol berishga, gipoteza tuzishga va turli yondashuvlarni sinovdan o’tkazishga undaydi. Bu tanqidiy fikrlash va ijodiy yechimlarni o’rganishga xizmat qiladi.

-Mustaqil o’rganish va o’zini o’qitish. Talabalar izlanish jarayonida mustaqil bilim qidirishga majbur bo’ladi, bu ularda natiyjaga erishish uchun harakat qilishini rivojlantiradi.

-Hamkorlik va muloqot ko’nikmalari. Guruhlarda ishlash talabalar muloqot, kelishmovchiliklarni hal qilish, o’zaro munosabatlarni yo’lga qo’yish kabi ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantiradi [3].

**Muammoli o’qitish usullarining kamchiliklari.** Muammoli o’qitishni kollaborativ ta’limda joriy qilish jarayonida bir qancha qiyinchiliklar uchrashi mumkin:

-Vaqt va resurs talabi. Muammoli topshiriqlar va muhokamalar uchun an’anaviy darslarga nisbatan ko‘proq vaqt kerak. Texnologik resurslar, materiallar, fasilitator uchun tayyorlanish talab qilinadi.

-Guruh dinamikasi va bahslar. Barcha talabalar bir xil darajada faol ishtirok etmasligi mumkin. Kelishmovchiliklar, rollar orasida tengsizlik va muloqotdagi to’siqlar guruh ishini zaiflashtirishi mumkin.

-Mentorlik va o’qituvchi malakasi. Muammoli o’qitish usullarini samarali qo’llash uchun o’qituvchi fasilitatorlik (yo’naltiruvchi) ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak.

-Qiyin muammolarni tanlash. Muammolar juda murakkab yoki etiborsiz bo’lsa, talabalar uchun demotivatsiyaga olib kelishi mumkin. Muammo mos darajada va diqqatni jalb qiluvchi bo’lishi zarur.

-Baholash muammolari. Muammoli o’qitishda baholash an’anaviy testlar bilan cheklanmasligi kerak. Protses va guruhdagi hissa qiymatini aniqlash murakkab bo’lishi mumkin.

-Texnik resurslar va infratuzilma. Agar muammoli o’qitish onlayn platforma yoki texnologiyalarga asoslangan bo’lsa (masalan, “flipped classroom” yoki teamwork tools), barcha talabalarda zarur texnologiya va internet mavjud bo’lishini ta’minlash kerak.

**XULOSA**

Kollaborativ ta’limda muammoli ta’lim usullarini qo’llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri, muammoli o’qitish usullarining afzalliklari va kamchiliklari qarab chiqildi. Mazkur usullardan foydalanish talabalarning bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi. Muammoli ta’lim elementlari joriy etilgan kollaborativ darslarda talabalarning mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va yechim topish ko’nikmalari an’anaviy o’qitish usullariga nisbatan yaxshiroq shakllanadi. Guruhli ish jarayonida talabalar o’zaro fikr almashish, bahs-munozara olib borish va jamoaviy qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek kollaborativ muhitda muammoli vazifalarni bajarish talabalarning ta’lim jarayoniga bo’lgan qiziqishini oshirishi, o’quv materialini chuqurroq o’zlashtirishiga xizmat qilishini ko’rsatadi. Ta’lim jarayonida faol ishtirok etgan talabalarda ijodiy yondashuv va tanqidiy fikrlash darajasi yuqori ekani aniqlanadi.

Umuman olganda kollaborativ ta’limda muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga, talabalarning intellektual va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019-yildagi PF–5847-son. O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida. https://president.uz/uz/lists/view/2966.
2. Avlayev O.U., Jo’rayeva S.N., S.R. Mirzayeva S.R. TA’LIM METODLARI. O’quv-uslubiy qo’llanma. – T.: 2016.
3. Фадеев А.С., Змеев О.А, Т. Т. Газизов Т.Т. Модель университета 4.0 Научнопедагогическое обозрение. Pedagogical Review. 2020. 2 (30). https://cyberleninka.ru/article/n/model-universiteta-4-0/viewer
4. Панфилова А.П. “Интерактивные методы и оценивание групповой работы” Российская научно-практическая конференция по интерактивному обучению 2018 г.